



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

MAQSUD SHAYXZODA

Shermatov Dilyorbek Elyorjon o'g'li

TDTU talabasi

Annotatsiya

Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyga “G’azal mulkinging sultoni” deya ilk marotaba e’tirof etgan yuksak iste’dod sohibi, nafis va o’tkir didli, beg’ubor najib bir inson haqida so’z ketganda ko’z o’ngimizga Maqsud Shayxzodaning yorqin siymosi namoyon bo’ladi.

Kalit so’zlar: Mutafakkir, iste’dod, Ozarbayjon, mahorat, urush yillari, publisistik, janr, tarjimon, najib.

O’zbek hamda Ozarbayjon xalqlarining farzandi bo’lmish Maqsud Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topgan. Otasining kasbi shifokorlik bo’lsada, she’riyatni nihoyatda sevgan farzandlariga adabiyotga muhabbat tuyg’usini singdirgan inson edi. Boshlang’ich va o’rta ma’lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirdan o’qida va 1925-yildan boshlab Darband shahrida muallimlik bilan shug’ullandi. Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririyatida, 1935-1938-yillarda esa Fanlar qo’mitasi qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan to umrining so’ngigacha qadar Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutida o’zbek klassik adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ishtirok etdi. Uning dastlabki she’rlari 1929-yilda paydo bo’ldi. Uning “O’n she’r”(1932), “Undoshlarim”(1933), “Uchinchi



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

kitob”(1934),”Jumhuriyat”(1934) to’plamlarining nashr etilishi adabiyotga o’ziga xos ovozi shoir kirib kelayotganidan darak berdi. Shundan keyin u, muttasil o’z she’rlari bilan chiqa boshladi.Shayxzodaning she’riy mahorati o’ttizinchi yillarning ohirlarida o’sa boshladi.U davrning barcha muhim masalalarini yorituvchi she’rlar yozdi.Ulug’ Vatan urushining hayajonli yillari adabiyot uchun ham sinov, ham ko’tarilish yillari bo’ldi.Shayxzodaning bu davrda yaratgan she’riy asarlari shoir ijodining cho’qqisi ,uning badiiy iste’dodining yuksak darajasi bo’ldi desak adashmaymiz Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlari ulug’lovchi “Kurash nechun?”(1941), “Jang va qo’shiq”(1942),”Ko’ngil deydiki..” kabi she’riy to’plamlari,”Jaloliddin Manguberdi”(1944) tarixiy dramasi va boshqa qator publitsistik asarlarini chop etdi. Otashin shoir mustabid tuzumning jabr-zulimidan chetda qolmadi. U birinchi bor 1928-yili qamoqqa olingan va sovetlarga qarshi tashviqotda ayblanib,3 yilga O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasidan o’chirilib,1952-yil 22-sentyabrda qamoqqa olinadi va 25 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. Maqsud Shayxzoda O’zbekistonni sevar,uning madhiga ajoyib qasidalar yaratgan edi.Shoirning 1934 yilda yaratgan viqor va ulug’vorlikka to’la “Jamhuriyat” she’ridan boshlab, to 1958 yili yozilgan nodir she’riy yodgorlik bo’lmish “Toshkentnoma” dostonigacha , O’zbekistonni tavsif etib yozgan barcha she’rlarini buning yaqqol ifodasi desak bo’ladi.Shayxzodaning butun ijodi siyosiy publitsistik ruh bilan to’la. Uning she’riy,dramatic asarlari qaysi mavzuda bo’lmasin, zamonamiz bilan hamohangdir.Shayxzodaning publitsistik maqolalari uning she’rlari kabi tuyg’ular tug’yonidan kelib chiqadi. Xuddi ana shu xususiyat shoirning badiiy tarjima sohasidagi faoliyatida ham yaqqol namoyon bo’ladi.Pushkin,Lermontov,Nekrasov she’rlarini o’zbek tilida ilk marotaba



E Conference World

International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research

Nottingham, UK

15th March, 2024

Website: <https://econferenceworld.org>

taqdim etgan shoirlar avlodida Shayxzoda ham bor.1948 yilda Shayxzoda Navoiy lirikasi bo'yicha katta ilmiy ish yozdi.Hayotining so'ngi yillarida Shayxzoda Navoiy ijodi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi tayyorlamoqda edi.Afsuski bevaqt o'lim bu katta maqsadni amalga oshirishga yo'l qo'ymadi. 1967 yili fevral oyida o'zbek adabiyoti katta motamga cho'mdi.Yuksak she'riy iste'dod va ilm sohibi Maqsud Shayxzoda dunyodan o'tdi. Uning vafotidan so'ng olti jildlik «Asarlar»i nashr etildi.Mustaqillik yillarida marhum Maqsud Shayxzoda ijodi va qilgan xizmatlari haqiqiy qadr topib, 2001-yili «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi.Shayxzodaning o'lmas xotirasini ehtirom bilan eslar ekanmiz, har birimiz shoirning jonli misralarini takrorlaymiz;

Umrlar bo'ladiki,

Tirigidan o'likdir.

Umrlar bo'ladiki,

Mangulikda tirikdir.

Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi,o'zbek xalq og'zaki ijodi,xususan,Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir.Adibning asarlari ko'plab qardosh va xorijiy xalqlar tillariga tarjima qilingan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/maqsud-shayxzoda-1908-1967/>.
2. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.
- 3.Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983.